

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA
"TARBIYA" FANINI O'QITISHDA METODIK TAYYORGARLIK
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMI**

Inoyatova ZX.

*Nizomiy nomidagi TDPU "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi"
kafedrasi, katta o'qituvchisi.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi paytda eng dolzarb masalalardan biri hisoblangan uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, bo'lajak boshlang'ich sinfi o'qituvchilarida «Tarbiya» fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarbiya, texnologiya, treninglar, topshiriqlar loyihasi, ro'lli o'yinlar, pedagogik vaziyatlar, kasbiy kompetensiya, innovatsiya, bilim, ilm-fan, kreativlik, o'qituvchining faoliyati, ijodkorligi, elektron ta'lim resurslari.

**МЕХАНИЗМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ МЕТОДИЧЕСКОЙ
ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПО
ПРЕДМЕТУ «ВОСПИТАНИЯ»**

Аннотация. В данной статье говорится о реформировании и совершенствовании системы непрерывного образования, которая считается одним из наиболее актуальных вопросов на данный момент, совершенствовании методической подготовки будущих учителей начальных классов, поднятии ее на новый качественный уровень.

Ключевые слова: образование, технология, обучение, проекты заданий, ролевые игры, педагогические ситуации, профессиональная компетентность, инновация, знание, наука, творчество, педагогическая деятельность, творчество, электронные образовательные ресурсы.

**MECHANISM FOR IMPROVING THE SYSTEM OF METHODOLOGICAL
TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN THE SUBJECT
OF "EDUCATION"**

Abstract. This article talks about reforming and improving the system of continuing education, which is considered one of the most pressing issues at the moment, improving

the methodological training of future primary school teachers, raising it to a new qualitative level.

Key words: *education, technology, training, task projects, role-playing games, pedagogical situations, professional competence, innovation, knowledge, science, creativity, pedagogical activity, creativity, electronic educational resources.*

Jahonning pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'limiy va tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish mexnizmlari ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan. Bo'lajak o'qituvchilarda ta'limiy va tarbiyaviy jarayonni tashkil etish ko'nikmalarini innovatsion ta'lim metodlarini qo'llagan holda, zamon talablariga mos, kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash modellari YuNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" birinchi darajali vazifa sifatida qaralib, ta'lim mazmunini mazkur munosabatlarga asoslanib shakllantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida boshlang'ich ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, nazariy-metodologik jihatlarini takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modelini takomillashtirish, talabalarda fanlarni o'qitishning nazariy bilimlari darajasini oshirishga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlarining didaktik-pedagogik imkoniyatlari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda [1].

Shu bilan birga, talabalarda bo'lajak kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantiruvchi jarayonni tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik imkoniyatlarni yaratishga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimini samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida jahon iqtisodiy-ma'rifiy dunyosiga kirib borishga qaratilgan yangi ta'lim tizimi shakllanmoqda. Bu jarayon pedagogika fani va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar bilan birga amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga zamonaviy mutaxassisga qo'yiladigan talablar o'zgarib bormoqda. Jahonning pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'limiy va tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish mexanizmlari ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarda ta'limiy va tarbiyaviy jarayonni tashkil etish ko'nikmalarini innovatsion ta'lim metodlarini qo'llagan holda, zamon talablariga mos ishlar amalga oshirilmoqda [2].

Oliy ta'lim muassasini bitirish davriga kelib bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi zamonaviy o'quv maqsadlariga erishish imkonini beruvchi kasbiy faoliyat vositalariga ega bo'lishi kerak [3].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining jamiyat va davlat tomonidan qo'yilgan vazifalarga erishish vositasida o'zlashtirish darajasi o'qituvchi tomonidan butun hayoti davomida shakllanadigan metodik faoliyatga, kasbiy mahoratga tayyorlik darajasini belgilaydi [4].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi oliy o'quv yurtida o'z ustida ishlashning dastlabki tajribasini shakllantiradi va takomillashtiradi. Kasb yo'nalishi bo'yicha mutaxassisning muvaffaqiyati uslubiy faoliyat asoslarining qanchalik to'liq va sifatli shakllanganligiga bog'liq [5, 6].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida "Tarbiya" fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirishda:

- *uning tashkiliy-tuzilmaviy komponentlari* (faoliyatli, innovatsion, amaliyotga yo'nalganlik);
- *imitatsion texnologiyalar* (lokal texnologiyalar, treninglar, topshiriqlar loyihasi, rolli o'yinlar);
- *"Tarbiya" fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish tizimlari* (mavhumlashtirish, umumlashtirish, tahlil va sintez)ni uyg'unlashtirish asosida aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir[7, 8].

Bundan tashqari, pedagogika oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun oliy ta'lim tizimini rivojlantirish loyihasida taqdim etilgan metodik faoliyat ob'ektlari soni ham ko'paygan. Jumladan: boshlang'ich sinflarda rejali va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari va jarayoni [9].

Shu bilan birga, ta'limning faoliyatga asoslangan shakllariga, uni tashkil etish va amalga oshirish texnologiyalariga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga quyidagilar tegishli bo'lishi kerak:

- ✓ boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va pedagogik vazifalarni bajarishda ularning asosiy fundamental bilimlardan va kommunikativ qobiliyatlardan foydalanish;
- ✓ o'quv jarayoni bo'yicha metodik bilim va ko'nikmalarni egallash;
- ✓ pedagogik faoliyatni yuqori darajadagi ta'limiy va kasbiy motivatsiya orqali modellashtirish va loyihalashtirish;
- ✓ boshlang'ich sinflarning fanlarini o'qitish metodikasida o'z ustida ishlash, o'z-o'zini aktuallashtirish va o'z-o'zini takomillashtirish [10, 11].

Kasbiy tayyorgarlik davomida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi fundamental fanlarni o'zlashtirishdan tortib, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni hal qilishni bilish kerak.

Motivatsion komponent bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi darajasini tavsiflaydi hamda uning o'quv-bilish faoliyati motivlarini va metodik faoliyatga qiziqish darajasini aks ettiradi[12].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligining kognitiv komponenti o'qituvchining umumiy pedagogik, metodik va maxsus bilimlar tizimini egallashini, shuningdek, ushbu bilimlarning o'zi uchun ham, uning bo'lajak kasbiy faoliyati uchun ham ahamiyati va zaruratini tushunishni o'z ichiga oladi [13].

Shu munosabat bilan oliy ta'limning o'quv jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish alohida o'rin tutadi [14]. Bo'lajak o'qituvchilarga zamonaviy maktab nazariyasi va amaliyotida yangi narsalarni ko'rish qobiliyatini shakllantirish, maktab oldida turgan muammolarni nostandart yechimlarni izlab topish va ularni amalga oshirish bosqichiga olib chiqish imkonini beradi.

Bunday ishlarni tashkil etishning shartlaridan biri bo'lajak o'qituvchilarning individual xususiyatlarini va ta'lim jarayonida ularni hisobga olish imkoniyatlarini o'rganish muammosidir [15]. Tabiiyki, bunday tizimni boshqarish maxsus dasturni ishlab chiqishni, shuningdek, iqtidorli talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun individual dasturlarni joriy yetishni talab qiladi [16].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlash muammolari holatini psixologik, pedagogik va metodik tadqiqotlar o'quv jarayonida uning shakllanishidagi ikkita asosiy tendentsiyani - ta'lim jarayonining kasbiy va pedagogik yo'nalishini amalga oshirishda kompetentli yondashuv va ta'limni axborotlashtirish ustuvorligini ifodalaydi [17, 18]. Ular o'qituvchini shakllantirishda o'zaro bir-birini to'ldirib turadi, chunki jamiyatni axborotlashtirish davrida moslashishga, innovatsion xulq-atvorga ega bo'lgan yangi turdagi o'qituvchini tayyorlashga bo'lgan talablar bo'lajak o'qituvchining uslubiy tayyorgarligini rivojlantirishda potentsial pedagogik imkoniyatlardan foydalanish, oliy kasbiy ta'lim tizimi oldida uning kasbiy tayyorgarligining samarali uslubiy tizimini yaratish vazifasini bajaradi.

Mutaxassisning kasbiy faoliyati nafaqat ma'lum darajadagi kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki uning faoliyatga tayyor bo'lishni anglatuvchi shaxsiy va kasbiy sifatlari bilan ham belgilanadi [19].

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatini o'rganish ta'limni modernizatsiya qilish bilan bog'liq holda, uning tarkibiy qismini – metodik tayyorgarlikni alohida ta'kidlab o'tishga imkon berdi, metodik tayyorgarlik esa o'z navbatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratiga bog'liqligi aniqlandi [20].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini metodik tayyorlash uning qobiliyati va tayyorligini tavsiflovchi shaxsning ajralmas sifati sifatida namoyon bo'ladi:

- oliy ta'lim muassasasida olingan bilimlar va ularning asosiy negizlaridan o'quv jarayonini kommunikatsiyalar asosida tashkil etishda hamda pedagogik vazifalarni hal etishda foydalanish;
 - boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish bo'yicha metodik bilim va ko'nikmalarni egallash;
 - o'z pedagogik faoliyatini yuqori darajali o'quv va kasbiy motivatsiyani modellashtirish va loyihalashtirish; fanlarni o'qitish metodikasida o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini aktallashtirish va o'z-o'zini takomillashtirish [21,22].
- Bo'lajak o'qituvchining boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish uchun metodik tayyorgarligi o'z vazifasini malakali, oqilona va amaliy bajarishga tayyorlash sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3151-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3775-son qarori.
3. Иноятова З. Х. (2021). Интегрированный урок «Воспитание» совместно с литературному чтению и изобразительному искусству в 3 классе // Наука, Образование, Инновации: Актуальные Вопросы И Современные Аспекты. - Рр. 232-236.
4. Inoyatova Z., Karamatova D., Baltamuratova A., & Aralova, D. (2022). Pedagogical conditions for the development of methodological training of future primary class teachers. Ann. For. Res, 65(1), 2291-2296.
5. Inoyatova Z.X., Po'Latova G.N., & Xojimurodova D. (2022). Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish // Science and Education, 3(12), 795-800.
6. Inoyatova Z. (2023). Technology for improving the methodological preparation of future primary class teachers for teaching sciences // Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(19), 75-77.
7. Inoyatova Z. (2023). Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodologiyasi // Евразийский журнал академических исследований, 3(11), 28-31.

8. Inoyatova Z. X. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi // *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1(6), 172-175.

9. Иноятлова З. Х. (2022). Педагогик технологиялар асосида ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитиш самарадорлигини ошириш йўллари // *Integration Of Science, Education And Practice. Scientific-Methodical Journal*, 3(6), 351-354.

10. Inoyatova Z. The Effectiveness of Advanced Educatinal Technologies in the Context of Innovative Development // *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPST)* ISSN: 2509-0119

11. Khamdamovna I.Z., R. Kamola, J. Nigora. Problems and Solutions for the Organization of Pedagogical Communication in the Educational Process of Future Primary School Teachers // *European Multidisciplinary Journal of Modern Science* 4 (2022): 413-416.

12. Inoyatova Z. Primary Classes based on Media Technologies Perpresent an International Rating System for Teacher Control // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation* ISSN: 1475-7192.

13. Inoyatova Z.X. Problems and solutions for the organization of pedagogical communication in the educational process of future primary school teachers // *European Multidisciplinary Journal Of Modern Science*. Volume: 4 <https://emjms.academicjournal.io/index.php/>

14. Salaeva M.S. Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishga innovation yondashishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari // *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 83–91. ISSN 2181-3558. Volume 1, ISSUE 3. August 2022. 10.5281/zenodo.6675309. <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/141>

15. Салаева М.С., Абдурасулова Ш.К. Педагог профессионализмининг шаклланиши касбий кадрият сифатида намоён бўлиши // *Eurasian journal of social sciences, Philosophy and culture*. Innovative Academy Research Support Center. ISSN 2181-2888. With Impact Factor: 8.2. Volume 2 Issue 02, February 2022. – Pp. 183-188. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6242575>

16. Салаева М.С. Инновацион таълим шароитида педагогнинг шахсий-касбий ривожланишининг психологик омиллари // *Образование и наука в XXI веке*. Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 12 (том 3) (март, 2021)- Б.567-570.

17. Салаева М.С. Педагогнинг самарали инновацион фаолиятини таъминлашда шахсий-касбий ривожланишини психологик қўллаб-қувватлаш / “Инновацион таълим: халқаро тажриба, муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Халқаро

илмий-амалий конференция. Тошкент шаҳридаги ЁДЖУ техника университети, 2021 йил 21 апрель. Электрон тўплам. 3-қисм. 2021 йил 21 апрель. - Б.405-407.

18. Салаева М.С. Педагогнинг ўз-ўзини касбий такомиллаштириши ва ўз имкониятларини рўёбга чиқаришнинг психологик механизмлари // «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў» журналы № 6/3 - 2022 жыл. – Б. 83-88.

19. Салаева М.С., Джумабаева М. Таълимни модернизациялаш шароитида педагог шахсининг ижтимоийлашуви ва профессионаллашуви // *UzACADEMIA Ilmiy-uslubiy jurnali*. ISSN (E) – 2181 - 1334 Barcha sohalar bo'yicha elektron jurnal. VOL 2, ISSUE 9 (19), July 2021 Part - 1. - С.54-60.

20. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*. ISSN - 2181-2608. With Impact Factor: 8.2. - Б. 59-62. <http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>

21. Salaeva M.S., Koshnazarova M.A., Abdukodirov G., Radjabova D.A. Professionalism of the Teacher as a Pedagogical Credo in the Age of Innovation // *Specialusis ugdymas / Special education* 2022 1(43). Pp. 10571 – 10576. <https://www.sumc.lt/index.php/se/article/view/1637>

22. Salayeva M.S., Ergasheva G.M., Magdiyeva M.E., Shayunusova F.S. Scientific Aspects of Pedagogical Professionalism // *Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology*. ISSN: 1001-4055 Vol. 44 No. 6 (2023). – Pp.2264-2270. <https://propulsiontechjournal.com/index.php/journal/article/view/3673/25>